

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA AHOLIGA XIZMAT
KO‘RSATISH MARKAZLARI**

Turdimambetov I.R.,

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti professori,
geografiya fanlari doktori,*

Uzakbaev K.K.,

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Geografiya o‘qitish metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi, geografiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15170411>

Kirish. Muayyan bir hudud doirasida xizmat ko‘rsatish sohalari muassasalarining yig‘indisi muassasalar to‘rini hosil qiladi. U o‘z navbatida *tarmoqlar to‘ri* va *kompleks xizmat ko‘rsatish sohalari to‘ridan* iborat bo‘ladiki, bunda birinchisining elementi muassasalar bo‘lsa, ikkinchisi esa barcha xizmat ko‘rsatish muassasalari to‘plangan xizmat ko‘rsatish markazlari (XKM) dan iboratdir. XKMLari jumlasiga kamida bittadan statsionar xizmat ko‘rsatish muassasasiga ega bo‘lgan aholi punktlari kiritiladi. XKMLari xizmat ko‘rsatish darajasiga ko‘ra turli kattalikda bo‘lishi mumkin. Ularning darajalarini ortib borishi bilan ulardagi xizmat ko‘rsatish turlari ko‘payib, mukammallashib boradi.

Xizmatlarning ko‘pchiligi aniq ko‘rinishdagi markazlashish xususiyatiga – ya’ni, xizmat ko‘rsatish ishlari olib boriladigan aholi punktidan tashqarida yashovchi aholini tortish qobiliyatiga ega. Bunga aholi yashash joyida ko‘rsatiladigan xizmat turlari (turar joy xizmati, bola bog‘chalari va xokazo) kirmaydi.

Asosiy qism. Xizmat ko‘rsatish markazlari tipologiyasiga ikkita munosabat mavjud. Birinchi – XKMni xizmat turlari bo‘yicha guruhlashga, ikkinchi – markazlarning bo‘ysinish tahliliga asoslangan. Bu ikki guruh bir-biriga to‘g‘ri keladi, sababi tashkilotlar kompleksi markaz statusi bilan bir xil. Ayrim holatlarda xizmat ko‘rsatishning hududiy tizimida markazning o‘rnini uning xizmat turlari belgilaydi. Masalan, ayrim sabablarga ko‘ra viloyat markazidagi ko‘rsatiladigan xizmat turlari oddiy shaharlardagidan farq qiladi, bu markazning ta’siri boshqa viloyatlarga ham tarqaladi (masalan, Samarqand, Nukus, Qo‘qon va xokazo).

Ammo, ayrim holatlarda xizmat ko‘rsatishning hududiy tizimida xizmat ko‘rsatish markazi tashkilotlari va o‘rni o‘zaro kelishilmay qoladi. Shu sababli tashkilotlarning keskin farq qiluvchi turlariga ega yoki xizmat ko‘rsatishning hududiy tizimlarida turlicha o‘rinlarga ega XKMLar yuzaga keladi. Masalan, Farg‘ona viloyatidagi Qo‘qon va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Xo‘jayli shaharlari aholining joylashuvi va xizmat ko‘rsatish tizimi bir-biriga o‘xshash – tumanlararo markazlar hisoblanadi. Ammo, aholiga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari bo‘yicha

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

keskin farq qiladi. 310 mingga yaqinroq aholiga ega bo‘la turib, Qo‘qon xizmat ko‘rsatish komplekslari bo‘yicha ko‘pchilik viloyat markazlaridan farq qilmaydi (u yerda jumladan 4 ta oliy ta‘lim muassasasi, 4 ta axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari, 1 teatr va 1 tarixiy-san‘at muzeyi mavjud). 75,5 ming aholiga ega Xo‘jayli bor-yo‘g‘i rivojlangan tuman markazi hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda xizmat ko‘rsatish markazlarining bir necha pog‘onalari ajratilgan – oddiy xizmat ko‘rsatadigan bir yoki bir nechta muassasalarga ega bo‘lgan kichik qishloq aholi punktlaridan tortib, to yirik markazlargacha. Har bir bosqichda muayyan darajada diversifikatsiyalangan doiradagi xizmatlar ko‘rsatiladi.

Turli ishlarda AXKS markazlarining darajalari soni turlicha ajratiladi. Masalan, S.A.Kovalev, A.I.Alekseev va A.A.Tkachenkolar Sobiq Ittifoq hududi uchun xizmat ko‘rsatish sohasi markazlarining to‘qqiz darajali iyerarxiyasini ishlab chiqdi: 9-daraja – mahalliy qishloq aholi punktlari, 8 – brigada (uchastkalar) ichidagi kolxoz va sovxoz markazlari; 7 – ichki xo‘jaliklar (kolxoz va sovxozlararo chegaradagi markazlar); 6 – xo‘jaliklararo markazlar; 5 – tuman markazlari; 4 – tumanlararo markazlar; 3 – viloyat markazlari; 2 – regional (ittifoqdosh respublikalar yoki viloyatlar guruhi, yaqin iqtisodiy rayonlar; 1 – butunittifoq.

N.I.Blajko va K.S.Rozina ishida xizmat ko‘rsatish markazlarining 6 ta darajasi ajratilgan: 1) aholi punktining funksional tuzilishi jihatidan eng sodda, aholisi 0,5 ming kishigacha; ularning xizmat ko‘rsatish funksiyalari har bir aholi punkti aholisining kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan; 2) kichik mahalliy xizmat ko‘rsatuvchi quyi tizimlar markazlari – kolxozlarning markaziy xo‘jaliklari (usadbali), o‘rta va yirik qishloqlar – qishloqlar kengashlarining markazlari, 15 ming kishigacha aholisi bo‘lgan shahar tipidagi aholi punktlari, o‘z aholisidan tashqari 30 daqiqagacha bo‘lgan vaqt radiusi oralig‘ida yetib borsa bo‘ladigan aholi punktlari; 3) tumanlar ichidagi yirik mahalliy quyi tizimlar markazlari – kichik shaharlar, shahar tipidagi aholi punktlari, katta qishloqlar – yetib borish radiusi 40-50 daqiqa bo‘lgan QFY markazlari; 4) yetib borish radiusi 1 soatgacha bo‘lgan tuman markazlari; 5) yirik shaharlar – tumanlararo xizmat ko‘rsatish markazlari; 6) viloyat markazlari.

Biz tomonimizdan savdo va umumiy ovqatlanish, tibbiyot (sog‘liqni saqlash), ta‘lim singari tarmoqlar kesimida bajarilgan hududiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholiga xizmat ko‘rsatish markazlarining iyerarxik tizimi shakllangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi aholiga xizmat ko‘rsatish markazlari iyerarxik tizimining eng yuqori pog‘onasida, tegishli hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimining eng yuqori pag‘onasi sifatida Respublika poytaxti Nukus shahri turadi.

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

Mazkur shahar aholiga xizmat ko‘rsatish sohasining barcha tarmoqlari rivojlanishi bilan Qoraqalpog‘istonda alohida ravishda ajralib turadi. Xususan, respublika poytaxtida ko‘p tarmoqli chakana va, ayniqsa, ulgurji savdoning mintaqa bo‘yicha eng yirik korxonalari, birinchi navbatda, bozor majmualari va savdo markazlari, 10 ta oliy ta‘lim tashkiloti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpog‘iston filiali, ilmiy tadqiqot institutlar, akademik litseylar, Prezident maktabi, mintaqaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ixtisoslashgan tibbiy muassasalar, jumladan ilmiy-amaliy tibbiy markazlar faoliyat ko‘rsatadi. Shu bois, Nukus shahrini Qoraqalpog‘iston Respublikasi miqyosidagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan aholiga xizmat ko‘rsatish markazi sifatida alohida ajratib olish lozim. Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi hech qaysi boshqa shaharni aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanish darajasi va hududiy ta‘sir doirasi jihatidan Nukus shahri bilan bir pog‘onaga qo‘yib bo‘lmaydi.

Ikkinchi pog‘onadagi aholiga xizmat ko‘rsatish sohasining hududiy markazlari bo‘lib, tumanlararo xizmat ko‘rsatish markazlari sifatida e‘tirof etilishi mumkin bo‘lgan shaharlar hisoblanadi. Aholiga xizmat ko‘rsatish sohasining tumanlararo markazlarini 2 toifaga, ya‘ni ko‘p tarmoqli (majmual) va ixtisoslashgan markazlarga ajratish mumkin. Ko‘p tarmoqli tumanlararo markazlar qatoriga Qoraqalpog‘iston Respublikasida Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot (Oltinko‘l shaharchasi bilan birga), Chimboy, Beruniy va To‘rtko‘l shaharlarini kiritish mumkin. Bu shaharlardagi ulgurji va chakana savdo, professional ta‘lim tashkilotlari, tibbiy massasalar nafaqat o‘z tumanlari aholisiga, balki qo‘shni tumanlar aholisiga ham muayyan darajada xizmat ko‘rsatadi. Chimboy va To‘rtko‘l shaharlarida, xattoki, oliy ta‘lim tashkilotlari ham faoliyat ko‘rsatadi. Ixtisoslashgan tumanlararo markazlari sifatida Ellikqal‘a tumanining ma‘muriy markazi Bo‘ston shahri, Amudaryo tumanining ma‘muriy markazi Mang‘it shahri va Kegeyli tumanidagi Xalqobod shahrini e‘tirof etish lozim. Bo‘ston shahri Qoraqalpog‘istonning janubiy tumanlari uchun, asosan, professional va oliy ta‘lim hamda, ma‘lum darajada, tibbiyot sohalarida xizmat ko‘rsatish markazi sifatida rivojlanmoqda, biroq savdo sohasida uning ahamiyati ancha pastroq. Mang‘it shahri Qoraqalpog‘iston Respublikasi janubiy va markaziy tumanlari, xattoki qo‘shni Xorazm viloyati aholisi uchun xizmat ko‘rsatadigan savdo markazi bo‘lib rivojlanmoqda, lekin ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalarida boshqa tuman markazlaridan farq qilmaydi. Xalqobod shahrida Qoraqalpoq davlat universitetining sirtqi bo‘limi faoliyat ko‘rsatayotganligi bois uning aholiga xizmat ko‘rsatish sohasidagi ahamiyatini tumanlararo darajaga ko‘tarib bergan.

Demak, umumiy hisobda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholiga xizmat ko‘rsatish sohasi hududiy markazlarining iyerarxik tizimidagi ikkinchi pog‘onada

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

tumanlararo xizmat ko‘rsatish markazlari sifatida 8 ta shahar ajralib turadi: Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot (Oltinko‘l shaharchasi bilan), Chimboy, To‘rtko‘l, Beruniy, Bo‘ston, Mang‘it va Xalqobod. Shunda, dastlab sanab o‘tilgan 5 ta shahar ko‘p tarmoqli xizmat ko‘rsatish markazlari, qolgan 3 ta shahar esa ixtisoslashgan xizmat ko‘rsatish markazlari sifatida rivojlanib bormoqda.

Aholiga xizmat ko‘rsatish markazlarining mintaqaviy pog‘onasimon tarmog‘ida uchinchi iyerarxik darajani tuman markazlari egallaydi. Tabiiyki, bu toifaga yuqorida tilga olingan tumanlararo ahamiyatidagi xizmat ko‘rsatish hududiy markazlari bo‘lgan tuman ma‘muriy markazlari (Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot, Chimboy, Beruniy, To‘rtko‘l, Mang‘it, Bo‘ston) kirmaydi. Shunday ekan, Qoraqalpog‘istondagi jami 16 ta qishloq ma‘muriy tumanlarining markazlaridan 9 tasi (Shumanay, Taxiatosh, Mo‘ynoq shaharlari, Kegeyli, Qorao‘zak, Taxtako‘pir, Qonliko‘l, Oqmang‘it va Bo‘zatov shaharchalari) shu pog‘onadagi aholiga xizmat ko‘rsatishning hududiy markazlari sifatida ajratib olinishi mumkin. Bu toifadagi xizmat ko‘rsatish hududiy markazlarining o‘ziga xos ahamiyatini bozorlar (ko‘pincha, haftaning muayyan kunlarida ishlaydi), ixtisoslashgan va kasb-hunar maktablar, tuman markaziy poliklinika va shifoxonalarning faoliyat ko‘rsatishi belgilab beradi.

Qishloqlararo xizmat ko‘rsatuvchi markazlar mintaqa doirasida shakllangan aholiga xizmat ko‘rsatish hududiy markazlarining to‘rtinchi iyerarxik pog‘onasini hosil qiladi. Bu aholi punktlar, odatda, shaharcha yoki katta qishloq bo‘lib turib, atrofidagi bir nechta kichikroq qishloq aholi punktlariga xizmat ko‘rsatadi. Tegishli toifadagi aholi manzilgohlari tarkibiga, birinchi navbatda, qishloq (ovul) fuqarolar yig‘inlari (OFY) ning ma‘muriy markazlari mansub. OFY markazlarida oilaviy shifokor punktlari, bir nechta umumta‘lim va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, ixtisoslashgan va majmualiy do‘konlar faoliyat ko‘rsatib, mahalliy (lokal) ahamiyatidagi servis muhitini shakllantiradi. Shu bilan birga, OFY markazlarida, aksariyat hollarda maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchalari (sartaroshxona, to‘yxona, go‘zallik salonlari va boshqalar) va mahalliy ahamiyatidagi avtotransport shox bekatlari (yo‘nalishli taksilarning boshlang‘ich nuqtalari) tashkil etilgan. Bu holat ham qishloqlararo xizmat ko‘rsatish markazlarining mintaqaviy aholiga xizmat ko‘rsatishning hududiy tizimidagi o‘rnini belgilab beradi.

Shuningdek, mazkur toifadagi xizmat ko‘rsatish markazlari qatoriga OFY maqomiga ega bo‘lmasa ham, atrofidagi mayda ovullarga kundalik tartibda faoliyat ko‘rsatadigan xizmat ko‘rsatish shahobchalari va ijtimoiy infratuzilma obyektlari joylashgan qishloq aholi punktlarini ham kiritish mumkin. Bunday aholi punktlarini, ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasining shimoliy tumanlarida uchratish mumkin. Bu tumanlar aholi sonining kamligi, aholi zichligining pastligi, mayda qishloqlarning

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

keng tarqalganligi, ular orasidagi masofalarning nisbatan kattaligi bilan tavsiflanadi. Natijada, ko‘p hollarda 2-3 ta mayda qishloq (ovul) aholisi uchun 1 ta umumta‘lim maktab, 1 ta maktabgacha ta‘lim tashkiloti faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu birlamchi ahamiyatidagi ta‘lim tashkilotlari joylashgan qishloq (ovul) lar qishloqlararo darajada xizmat ko‘rsatish markazlariga aylanadi. Ushbu aholi manzilgohlarida chakana savdo shahobchalari ham, asosan, ta‘lim muassasalari o‘quvchilari hisobiga biroz yaxshiroq rivojlangan bo‘ladi.

Masalan, Kegeyli tumanidagi Aqtuba OFY ga qarashli O‘ten ovulida joylashgan maktab tegishli OFY tarkibiga kiruvchi Elibay, Qarabas, Shinibay kabi ovullarning aholisiga xizmat ko‘rsatadi. Sanab o‘tilgan ovullarda maktablar mavjud emas. Shu OFY ning ma‘muriy markazi Qarasiyraq ovulida esa OFY da yagona maktabgacha ta‘lim tashkilot faoliyat ko‘rsatadi. Shu orqali O‘ten va Aqtuba ovullari qishloqlararo xizmat ko‘rsatish markazlari sifatida e‘tirof etilishi mumkin.

Nihoyat, mintqa doirasida shakllangan aholiga xizmat ko‘rsatish markazlarining pog‘onasimon tizimning eng pastki, beshinchi, iyerarxik darajani xizmat ko‘rsatish korxonasi, tashkilot va shahobchalari, ijtimoiy infratuzilma obyektlari umuman yoki deyarli shakllanmagan ovullar tashkil etadi. Bunday aholi punktlarida bir nechta o‘nlab xonadonlar (oilalar, uy xo‘jaliklari) istiqomat qilib, aholi soni 500 kishidan kam bo‘ladi (ayrim hollarda 100 kishiga ham yetmaydi). Bunday aholi manzilgohlarida hattoki umumta‘lim muassasalari, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari mavjud emas, shuning uchun bu yerdagi oilalarning farzandlari qo‘shni ovullardagi o‘quv muassasalariga tahsil olish uchun qatnaydilar. Chakana savdo sohasi ham bunday aholi manzilgohlarida deyarli yo‘q darajada bo‘ladi.

Istisno tariqasida ayrim xonadonlar o‘z uylarida tashkil qilgan kichik savdo shahobchalari faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Shunda ham bunday savdo shahobchalarida sotiladigan mahsulotlar assortimenti kundalik talab darajasidagi tovarlar bilan cheklanadi. Shu bois, bunday mayda qishloq aholi punktlarida ko‘chma savdoni aholining ehtiyoj va istaklarini inobatga olgan holda tizimli ravishda tashkil etish katta ijtimoiy samara beradi.

Xulosa. Umuman olganda, Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholiga xizmat ko‘rsatish sohasining hududiy markazlari besh pog‘onalik iyerarxik tizimni hosil etadi (1-jadval): 1-pog‘onadagi mintaqaviy (ayrim yo‘nalishlarda – Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni doirasida) ahamiyatga ega bo‘lgan Nukus shahri; 2-pog‘onadagi tumanlararo xizmat ko‘rsatish markazlari (Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot, Chimboy, To‘rtko‘l, Beruniy, Mang‘it, Bo‘ston kabi tuman markazlari va Kegeyli tumanidagi Xalqobod shahri); 3-pog‘onadagi xizmat ko‘rsatish markazlari hisoblanadigan tumanlarning ma‘muriy markazlari (yuqorida sanab o‘tilgan 6 ta tuman markazlaridan tashqari

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

qolgan 9 ta tumanlarning ma'muriy markazlari); 4-pog'onadagi qishloqlararo xizmat ko'rsatish markazlari (OFY markazlari va boshqa shaharcha hamda nisbatan kattaroq qishloq aholi punktlari); 5-pog'onadagi xizmat ko'rsatish shahobchalari umuman yoki deyarli mavjud bo'lmagan eng mayda ovullar.

1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida shakllangan aholiga xizmat ko'rsatish hududiy markazlarining iyerarxik pog'onalari haqida umumiy ma'lumot

Pog'ona tartib raqami	Pog'onaning nomi	Mansub aholi punktlari	O'ziga xos xususiyatlari
1	Mintaqa va mintaqalararo xizmat ko'rsatish markazi	Nukus shahri	Oliy ta'lim tashkilotlari, ilmiy tadqiqot muassasalari, akademik litseylar, Prezident maktabi, yirik ko'p tarmoqli ulgurji va chakana savdo tashkilotlari, ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiy muassasalar, temir yo'l vokzali va xalqaro aeroport faoliyat ko'rsatadi
2	Tumanlararo markazlari	Xo'jayli, Qo'ng'iro't (Oltinko'l shaharchasi bilan), Chimboy, Beruniy, To'rtko'l, Bo'ston, Xalqobod, Mang'it shaharlari	Texnikum, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim tashkilotlari filiallari va fakultetlari, ixtisoslashgan shifoxonalar, doimiy ishlaydigan bozorlar faoliyat ko'rsatadi
3	Tuman markazlari	Taxiatosh, Shumanay, Mo'ynoq shaharlari, Oqmang'it, Kegeyli, Qora'zak, Taxtako'pir, Qonliko'l, Bo'zatov shaharchalari	Ixtisoslashgan va kasb-hunar maktablari, turli ta'lim tillarida faoliyat olib boradigan umumta'lim muassasalari, tuman poliklinika va shifoxonalari, tuman ahamiyatidagi bozorlar, katta do'konlar, tuman avto shox bekatlari faoliyat ko'rsatadi
4	Qishloqlararo markazlar	OFY markazlari, nisbatan katta qishloqlar	Oilaviy shifokor punktlari, umumta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari, do'konlar, to'yxonalar, mahalliy ahamiyatidagi maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari faoliyat ko'rsatadi
5	Xizmat ko'rsatish markazlari hisoblanmaydigan manzilgohlar	Mayda ovullar	Xizmat ko'rsatish shahobchalari, ijtimoiy infratuzilma obyektlari umuman yoki deyarli mavjud emas

Jadval muallif tomonidan bajarilgan tadqiqotlar natijalari asosida shakllantirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iskenderov A. B., Uzaqbaev Q. K., Sharibaev Am D. I. B. Turizm ham rekreaciyaliq geografiya" paninen oqiw-metodikaliq qollanba //Nokis-2019. – 2019. – T. 128.
2. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Niyazimbetova G. CURRENT STATUS OF MEDICAL SERVICES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Science and education in Karakalpakstan.–2020. – 2020. – T. 2. – C. 104-108.

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

3. Turdimambetov I. R., Uzaqbaev Q. K., Oteuliev M. O. Territorial formation of the education system in improving the quality of life of the population of the Republic of Karakalpakstan // Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 276-279.
4. Turdimambetov, I., Joldasov, A., Iskenderov, A., & Uzaqbaev, Q. (2022). Qaraqalpaqstanm ekonomikaliq ham socialliq geografiyasi.
5. Tursinbaevna, Gayrova Roza, and Uzaqbaev Qoblan Keunimjay Uli. "Territorial Location Of Medical Services To The Population In The Republic Of Karakalpakstan." *The American Journal of Applied sciences* 2.11 (2020): 28-33.
6. Бекбулатова Г.А., Нурбаева А Основные факторы развития и размещения торгового обслуживания, "Экономика и социум" ISSN 2225-1545. №12(103) 2022.
7. Бекбулатова Г.А., Авезова Н. Региональные аспекты организации развития и размещения сфер торгового обслуживания. "Экономика и социум" ISSN 2225-1545. №12(103) 2022.
8. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИ ГЕОГРАФИЯСИДА ЯРАТИЛГАН НАЗАРИЯЛАР ТАҲЛИЛИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 919-929.
9. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 233-240.
10. Узакбаев К.К. ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 845-857.
11. Утепова Г. Б., Узакбаев К. К. РОСТ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ // Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 1121-1130.